



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-fevral

91-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektr energiyasini xarid qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PQ-39-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 82-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Elektr energiyasini xarid qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-fevraldagi PQ-39-son qarori hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 82-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 82-6-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

Xususiy elektr stansiyalarini hamda elektr energiyasini saqlash tizimlarini loyihalashtirish, moliyalashtirish, qurish hamda ekspluatatsiya qilish loyihalari (keyingi o‘rinlarda - Loyihalar) doirasida “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ bilan elektr energiyasini sotib olish to‘g‘risida imzolangan bitimlarni (keyingi o‘rinlarda - Bitimlar) “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazish va qayta rasmiylashtirish belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

Bitimlar va ular doirasida imzolangan boshqa shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlar “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirilgan Loyihalar ro‘yxati 1-ildan 1-ildan muvofiq;

2025-2028-yillarda 39 ta Loyihalar doirasida imzolangan Bitimlarni “O‘zenergosotish” AJga o‘tkazish va qayta rasmiylashtirish reja-jadvali 2-ildan 2-ildan muvofiq ma‘qullanganligi;

bunda:

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ Bitimlar va ular doirasida imzolangan boshqa shartnomalar bo‘yicha huquq va majburiyatlari “O‘zenergosotish” AJga qayta rasmiylashtirilishini;

Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi manfaatdor vazirlik, idoralar va davlat ishtirokidagi tijorat banklari bilan birgalikda Bitimlar doirasida imzolangan boshqa shartnomalarga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishini ta‘minlashi;

“O‘zenergosotish” AJ Bitimlarda nazarda tutilgan shartlarga muvofiq bir oy muddatda:

Suv xo‘jaligi vazirligi bilan birgalikda loyiha kompaniyalariga texnik suv yetkazib berish to‘g‘risida;

“UzGasTrade” AJ bilan birgalikda loyiha kompaniyalariga tabiiy gaz yetkazib berish to‘g‘risida;

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ bilan birgalikda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini uzatish to‘g‘risida;

“Milliy dispetcherlik markazi” DUK bilan birgalikda dispetcherlik boshqaruvi xizmatini ko‘rsatish to‘g‘risida shartnomalar imzolanishini ta‘minlashi;

bunda Suv xo‘jaligi vazirligi va “UzGasTrade” AJ shartnomalar shartlariga muvofiq tabiiy gaz va texnik suv yetkazib bermasligi hamda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan transportirovka xizmati bajarilmasligi natijasida loyiha kompaniyalariga yetkazilgan zararlar, shu jumladan, barcha turdagi jarima va boy berilgan foyda summasini to‘lab berish majburiyati yuzasidan, tabiiy gaz va texnik suv yetkazib beruvchilar hamda transportirovka xizmatini bajaruvchilar “O‘zenergosotish” AJ oldida qonunchilikka muvofiq regress tartibida javobgar bo‘lishi belgilab qo‘yilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 3-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining tegishli o‘rinbosari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**